



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 17-iyul, № 145 (9316)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



Aks sado

INSON HAYOTI – ENG OLIY QADRIYAT

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu yo'lda qabul qilinayotgan har bir qonun, amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, inson xavfsizligi va farononligiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shu nuqtayi nazardan, Oliy Majlis Senati o'n yettinchi yalpi majlisida ma'qullangan, yong'in xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan "Yong'in xavfsizligi tizimi takomillashtirilayotganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun mamlakatimizda inson hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini ishonchli himoyalashga qaratilgan navbatdagi muhim huquqiy qadam bo'ldi.

Yurtimizda yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Uning doirasida davlat yong'in nazorati tizimi takomillashtirilib, profilaktika ishlari kuchaytirildi. Biroq yong'inlar bilan bog'liq ko'ngilsizliklar sohada yanada ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xususan, 2025-yilda respublika bo'yicha 11 241 ta yong'in sodir bo'lgan. Ularning oqibatida 249,2 mlrd. so'mlik moddiy zarar yetkazilgan. Eng achinarlisi, 82 fuqaro halok bo'lib, 129 nafar inson turli darajada jarohat olgan. Ana shu kabi salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan mazkur qonun sohada mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, davlat organlari, tadbirkorlar va boshqa mas'ul subyektlarning javobgarligini kuchaytirish, eng muhimi, yong'inlarning oldini olishga qaratilgan yangi tizimni shakllantirishni nazarda tutadi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA MUHIM YONDASHUV

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 93-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan biri hisoblanadi. Milliy ma'ruzaning parlament muhokamasiga kiritilishi korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazoratining ta'sirchanligini yanada kuchaytirish, mas'ul davlat organlarining hisobdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida milliy ma'ruza ko'rib chiqilib, mamlakatimizda korruptsiyaning oldini olish, ushbu illatga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar atroflicha muhokama etildi. Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zolarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Adham SHODMONOV,
qo'mita a'zosi:

– Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Natijada so'nggi yillarda mazkur sohada mutlaqo yangi institutsional va huquqiy tizim shakllandi. Bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurashish faqat huquqbuzarlikka yo'l qo'yg'an shaxslarni javobgarlikka tortish bilan cheklanmay, balki uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuvlar, ochiqlik, raqamlashtirish, parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda.

MAHALLALARDA BOSHQARUVNI SAMARALI TASHKIL ETISH BO'YICHA ISTIQBOLLI CHORA-TADBIRLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-iyul kuni mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari bu yil infratuzilmani yaxshilash, odamlar va tadbirkorlar uchun sharoit yaratish maqsadida tumanlarga o'rta 250 milliard so'mdan, mahallalarga esa 5,5 milliard so'mdan mablag' berilganini ta'kidladi.

Tuman hokimlari va mahalla raislarining tushum bo'yicha vakolatlari kengaytirilgani natijasida hududda qoladigan qo'shimcha daromad 2 barobargacha ko'paydi. Tumanlarda o'rta 22 milliard so'mdan qo'shimcha mablag' qoldi, mahalla byudjetiga esa o'rta 150 – 200 million so'm tushdi.

– Lo'nda aytganda, hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, “yettilik”ning har bir vakilida resurs va vakolat bor. Yetishmayotgan jihat – mas'uliyat va tashabbuskorlik, – dedi Prezidentimiz.

Tahlillar ayrim mahallalarda muammolar vaqtida hal etilmayotganini ko'rsatmoqda. Shu yilning o'zida Xalq qabulxonalari orqali 87 ta mahallaning har biridan 200 dan ortiq murojaatlar kelib tushgan.

Shuningdek, “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida bu yil 7,5 trillion so'm ajratilgan bo'lsa-da, 2 136 ta mahallada birorta loyihaga g'olib chiqmagan. Kichik loyihalar uchun banklar tomonidan olti oyda 18,5 trillion so'm resurs ajratilib, 110 mingta mikroloyiha amalga oshirilgan, 259 ming odam ishl bo'lgan. Lekin 47 ta mahallada bor-yo'g'i 2 tadan mikroloyiha ishga tushirilgan.

Ayrim tumanlarda loyihalarga kambag'al oilalarni jalb qilish darajasi pastligi, 960 ta kambag'al oila yashaydigan 32 ta mahallada birorta ham ehtiyojmand odam doimiy ishga joylashtirilmagani tanqid qilindi. Shuningdek, 883 ta mahallada bankirlar xonadonbay yurib, loyiha qilmagani, tadbirkorlar bilan uchrashmagani qayd etildi.

Shu sababli yil boshidan mahallada ishni to'g'ri tashkil qilmagan 152 nafar rahbar ishdan olingan, yana 700 nafariga intizimiy chora ko'rilgan.

Yig'ilishda mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, aholi muammolarini hal etish va “yettilik” mas'uliyatini oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mahalla odamlar uchun chinakam ishonch, tayanch va imkoniyatlar markaziga aylanishi zarurligini ta'kidladi.

Yaqinda mahalla boshqaruvini samarali tashkil qilish bo'yicha Prezident farmoni imzolandi.

Unga ko'ra, mahalla raisi ijtimoiy muammolari qayd etuvchi shaxsdan o'z hududining “iqtisodiy buyurtmachisi”ga aylanishi kerak.

Endi har bir mahalla raisi o'z hududining iqtisodiy va ijtimoiy buyurtmasini shakllantiradi. Bunda muammo aniq hisob-kitob qilinadi, loyiha tayyorlanib, mas'ul tashkilotlarga vazifa qo'yiladi. Mahallalarda xususiy bog'cha, maktab, klinika va sport inshootlari qurish uchun yerni auksionga chiqarish vakolati ham mahalla raislariga beriladi.

Davlatimiz rahbari mahalla raisi ijtimoiy muammolari hal qilish, tozalikni ta'minlash va daromadni ko'paytirishga xizmat qiladigan loyihalarda tashabbuskor bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Bunday loyihalar uchun “mahalla yettilik”lariga 10 million so'mdan grant ajratiladi. Ushbu maqsadlar uchun jami 240 milliard so'm resurs shakllantiriladi.

Mahalla raisi o'z hududining haqiqiy boshqaruvchisi bo'lishi shart. U hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori, soliqchi va mahalla bankirining haftalik hamda oylik ish rejasini tasdiqlab beradi, ularga aniq vazifa qo'yib, so'rov qilib boradi.

“Yettilik” faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash va hududdagi muammolarga ilmiy yondashish uchun Mahallani rivojlantirish milliy instituti tashkil etiladi. U “yettilik”ni o'qitadi, mahallalardagi dolzarb masalalarga ilmiy yechimlar ishlab chiqadi.

Yig'ilishda mahalla bankirlarining ish uslubi ham tubdan o'zgarishi belgilandi. Endi banklar har bir mahallaning “o'sish nuqtasi”ni aniqlab, tashabbuskorlarni topishi va daromadli loyihalarni ko'paytirishi zarur. Bundan buyon bitta mahalla bankiriga ko'pi bilan uchta mahalla birlashtiriladi.

Mahalla bankirlari hududdagi bank mijozlari bilan ishlab, ish o'rinlari va ularga qo'yilgan talabni aniqlaydi. Mahalladagi ishsizlarni shu kasblarga o'qitish uchun bandlik bo'limiga buyurtma beradi va o'qishni bitirganlarni ishga joylashtiradi.

Joriy yil oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun qo'shimcha 2 trillion so'm imtiyozli resurs berildi. “Og'ir” mahallalar uchun kredit stavkasi 17,5 foizdan 12 foizga tushirildi. Endi mahalla bankirlari o'zi topgan loyihasi uchun ushbu resursdan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Davlat banklari mahallalarni ixtisoslashtirish, “Agrostar” kompaniyalarini mahalla birga yetishtirish

– qayta ishlash – saqlash – qadoqlash – sotish” zanjirini yaratish bo'yicha ishlaydi. Bir oyda 1 mingta mahallada ish boshlash, har bir mahallada kamida 3 tadan “lokomotiv” loyihani amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Mahallalar byudjetini mustahkamlash bo'yicha ham yangi tashabbuslar ilgari surildi. Endilikda mahalladagi noturar obyektlardan tushgan yer va mulk solig'ining 5 foizi ham mahallaning o'ziga beriladi. Bu orqali mahallalar ixtiyorida yiliga yana 400 milliard so'm mablag' qoladi.

Yil davomida eng ko'p tadbirkorlarni ro'yxatga olgan, eng ko'p yangi ish o'rni yaratgan, tushum darajasi eng yuqori bo'lgan va eng ko'p qo'shimcha soliq bazasi topgan 200 ta mahallaga 2 milliard so'mdan mukofot beriladi.

Umuman, yangi tashabbuslar hisobiga mahallalar byudjetiga tushum joriy yil 1 trillion 600 milliard so'mga, kelasi yildan esa 2 trillion so'mga yetadi.

Yurtimizda 2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilingan. Shu asosda barcha sohalardagi islohotlar natijasi, avvalo, mahallada va odamlarning kayfiyatida namoyon bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Bu yil Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” degan ezgu g'oya asosida keng nishonlanadi. Eng ulug', eng aziz bayramni mahallalarda ko'tarinki ruhda o'tkazish uchun “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” e'lon qilindi.

Mahallada obodonchilik ishlarini tashkil etish bo'yicha Bosh vazir boshchiligidagi respublika shtabi tuziladi, hududiy shtablarga hokimlar rahbarlik qiladi. Bu ishlar bir oylik aksiya emas, balki yil bo'yi ishlaydigan umummilliy harakatga aylantirilishi zarurligi ta'kidlandi.

Mehnatga yarasha rag'bat bo'lishi uchun yil yakuni bilan ko'p qavatli uylardagi “Eng orasta xonadon”, mahalladagi “Eng fayzli hovli”, hududdagi “Eng obod ko'cha”, tuman va viloyatdagi “Eng namunali mahalla” nominatsiyalari joriy etiladi.

Tanlov g'oliblari bo'lgan ko'p qavatli uylardagi kvartiralar uchun mol-mulk solig'idan, hovli-joylar uchun esa yer solig'idan imtiyoz beriladi. Yaxshi tajriba yaratgan “mahalla yettiligi” mukofotlanadi, ularning ish uslubi boshqa hududlarga namuna qilib ko'rsatiladi.

– Mahalla – xalqqa eng yaqin boshqaruv bo'g'ini. Odamlarning kundalik masalalari shu

yerning o'zida, ortiqcha ovoragarchiliksiz hal bo'lishi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Hozir “yettilik” orqali 100 ga yaqin xizmatlar ko'rsatilmoqda. Endi barcha davlat xizmatlari bosqichma-bosqich mahallaga tushiriladi.

Mahallalarda ijtimoiy yordamlar ko'lamini kengaytirish masalasi ham muhokama qilindi. Joylarda ijtimoiy reestrga kiritishni asossiz rad etish yoki sun'iy ravishda reestrdan chiqarish holatlari uchrayotgani tanqid qilindi.

Oqibatda ehtiyojmand oilalar ijtimoiy yordam olish, farzandini bog'cha va to'garakka berish kabi kafolatlangan xizmatlardan foydalana olmayapti. 184 ta mahallada bir oy ichida kelgan 2 ming arizaning barchasi asossiz rad qilingan. Shu sababli reestrga kirish masalasida Prezidentga murojaatlar yil boshidan 1,5 barobar oshib, 30 mingdan 46 mingga ko'paygan.

Bosh prokuraturaga ijtimoiy reestr to'g'ri yuritilishini qat'iy nazorat qilish topshirildi. Yil yakunigacha nogironlikni erta aniqlash, xonadonlarni moslashtirish, ijtimoiy uyga joylashtirish kabi 25 turdagi xizmatni mahallaga tushirish vazifasi qo'yildi.

Uch oyda demensiya va aqliy zaifligi bo'lgan shaxslar uchun 250 ta mahallada kunduzgi va uyda parvarish xizmati hamda “Madad” uylari, 75 ta mahallada o'zgarlar parvarishiga muhtoj keksalar uchun “Faol hayot” dasturi, shuningdek, qarovsiz qolgan va zo'ravonlikka uchragan bolalar uchun qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etiladi.

Mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha yaratilgan tizim o'z natijasini bermoqda. So'nggi uch yilda kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan 1 162 ta mahallaning 571 tasi bu yil birorta jinoyat sodir etilmadi.

Jumladan, videokameralar o'rnatish, xavfsiz ko'cha va yo'laklar tashkil qilish, oilalarga psixologik yordam ko'rsatish, ehtiyojmand, ishsiz va jinoyatga moyil aholi qatlami bilan manzilli ish olib borish natijasida “qizil” toifadagi ayrim mahallalarda jinoyat sodir etilmagan.

Jinoyatchilikni jilovlashga mas'ul ilmiy tashkilotlar bilan birga namunali mahallalar tajribasi asosida metodika ishlab chiqiladi. Yil davomida “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar profilaktika inspektorlari ushbu metodika bo'yicha joyiga borib o'qitiladi.

Yig'ilish davomida mutasaddilarning axborotlari tinglandi, mahalla vakillari bilan muloqot qilindi.

O'ZA.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

TEXNIK REGLAMENT TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISHGA OID TAKLIFLAR



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Qonunchilik palatasi rahbariyati, Kengashi a'zolari, deputatlar, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbariyati va mutaxassislari ishtirok etgan yig'ilishda texnik jihatdan tartibga

solish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, qurilish mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlash hamda texnik reglamentlar talablarini buzganlik uchun javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirishga

qaratilgan qonunchilik takliflari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Bekobod shahriga tashriifi davomida qora metallurgiya sanoatini rivojlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro standartlarni joriy etish va tarmoq raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan edi.

Fakt va raqamlar

Mamlakatimizda Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida qo'shimcha yangiliklar belgilanmoqda.

Jumladan:

– avval dastur doirasida mikrokreditdan foydalangan va ijobiy kredit tarixiga ega tadbirkorlar uchun mikrokreditning garovsiz qismi **100 mln.** so'mdan **200 mln.** so'mgacha oshirildi;

– kredit yoki izing miqdoridan qat'i nazar, uning **5 mlrd.** so'mgacha bo'lgan qismi uchun foiz xarajatlari kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek, har yili o'z faoliyatini kengaytirgan va yuqori natija ko'rsatgan **100 ta** tadbirkorlik subyektiga raqamlashtirish, xalqaro standartlar va “yashil” texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xarajatlari uchun **300 mln.** so'mgacha grant ajratish ko'zda tutilmoqda.

Senator va yoshlar

YANGI MARRALAR SARI YO'L

Yoshlar kuni doirasida Oliy Majlis Senatida tadbirlar bo'lib o'tdi. Xususan, Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mita tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursantlari parlament yuqori palatasi faoliyati bilan tanishdi.

Tadbirida asosiy e'tibor yoshlarning parlament faoliyati, qonun ijodkorligi jarayoni hamda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarini yanada boyitishga, yig'it-qizlarda yuksak fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga qaratildi.

Bo'lajak qutqaruvchilar Senat faoliyati,

konstitutsiyaviy vakolatlari, qo'mitalarining asosiy vazifalari va qonunchilik jarayonidagi o'rni haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'ldi. Mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, milliy xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarning oldini olish yo'nalishida qabul qilinayotgan qonunlar hamda parlament nazoratining ahamiyati yuzasidan fikr almashildi.





Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga

Transport logistikasi jahon siyosati va iqtisodiyotining eng muhim bo'g'iniga aylangan. Endilikda yuk tashishda nafaqat vaqt va mablag', balki yo'nalishlar xavfsizligi birinchi o'ringa chiqdi. Ukrainadagi mojaro, Yevropa Ittifoqining Rossiya va Belarusga qarshi keng qamrovli sanksiyalari hamda Yaqin Sharqdagi keskinlik ko'plab davlatlarni an'anaviy yo'llardan voz kechib, Markaziy Osiyo orqali o'tadigan yangi xavfsiz tranzit yo'laklarini izlashga majbur qilmoqda.



O'ZBEKISTON – YEVROOSIYO MAKONIDAGI LOGISTIKA CHORRAHASI

Yaqin o'tmishda jahon transport tizimining chekkasida bo'lgan Markaziy Osiyo bugungi kunda Xitoy, Rossiya, Kavkaz, Yaqin Sharq va Yevropani bog'lovchi haqiqiy logistik chorrahaga aylandi. Bu o'zgarish mintaqada davlatlariga xalqaro savdoning yangi arxitekturasini shakllantirishda faol va ta'sirli ishtirokchiga aylanish uchun tarixiy imkoniyat yaratdi, desak, ayni haqiqat.

Qo'shni davlatlardan farqli o'laroq, O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan va mintaqaning barcha mamlakatlari, shuningdek, Afg'oniston bilan chegaradosh yagona davlat. Dengizga chiqish yo'li bo'lmasada, aynan mana shu qulay geografik joylashuv mamlakatni xalqaro tranzit oqimlarining tabiiy chorrahasiga aylantiradi.

O'zbekiston rahbariyati mamlakatni Yevroosiyoning eng yirik transport-logistika markaziga aylantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyani amalga oshirishga kirishdi. Bu strategiya faqatgina yangi temir yo'llar qurish bilan cheklanmaydi. Aksincha, avtomobil yo'llari infratuzilmasini modernizatsiyalash, yuk tashish tizimini raqamlashtirish va zamonaviy logistika terminallarini yaratish, temir yo'li vagonlari va lokomotiv parkini yangilash, aviatsiya sohasini jadal rivojlantirish, mamlakatni xalqaro transport yo'laklari tizimiga to'liq integratsiya qilish kabi kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Global siyosiy inqirozlar tufayli dunyoning transport xaritasi qayta chizilayotgan bir paytda Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston o'z qulay geografik mavqeidan foydalanib, Yevroosio iqtisodiy makonida asosiy va muqarrar transport-logistika xabiga aylanish uchun dadil strategik qadamlarni tashlamoqda.

O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, xalqaro yuk tashish hajmini 2 karra oshirish, transport-logistika xizmatlari eksportini 2 barobar ko'paytirish, zamonaviy logistika markazlari quvvatini 3-martaga kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, 2022-yilgacha Xitoy va Yevropa o'rtasidagi temir yo'l tashuvlarining asosiy qismi Rossiya, Qozog'iston va Belarus orqali o'tgan. Ukrainadagi mojarodan so'ng, Xitoy va Yevropa kompaniyalari muqobil tranzit yo'nalishlarini izlay boshladi. Shimoliy tarmoqdan to'liq voz kechib bo'lmasada, O'zbekiston ishtirokidagi chekka va ilgari ikkinchi darajali hisoblangan yo'llarga qiziqish keskin ortdi. Xususan, O'zbekiston mintaqadaning transport xaritasini butunlay o'zgartira oladigan uchta yirik temir yo'li yo'nalishining kesishish nuqtasiga aylanayotgani real haqiqat. Bular: Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li. Transaf'gon temir yo'li yo'lagi. Kaspiy dengizi va Eron orqali

Markaziy Osiyoni Kavkaz, Turkiya va Yevropa bilan bog'laydigan yo'nalishlar tizimi.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasi so'nggi yillarda eng ko'p muhokama qilinayotgan va mintaqada uchun tarixiy ahamiyatga ega tashabbusdir. Loyiha ustida qariyb 30 yil davomida muzokaralar olib borilgan bo'lib, faqat 2024-yilga kelib uni amalga oshirishga kirishildi. Magistralning umumiy uzunligi 523 kilometrni, loyiha qiymati esa taxminan 8 mlrd. dollarni tashkil etadi. Va bu yo'l G'arbiy Xitoyni Markaziy Osiyo bilan bog'laydigan eng qisqa quruqlik yo'liga aylanadi (masofani mavjud yo'nalishlarga nisbatan 900 kilometrga qisqartiradi).

Mazkur loyiha nafaqat tranzit daromadlarini ko'paytiradi, balki yo'nalish bo'yab yangi omborxonalar, terminallar, taqsimlash markazlari, sanoat maydonchalari va xizmat ko'rsatish zonalarini qurilishi hamda minglab yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Janubiy yo'nalish hisoblangan Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'li qurilishi O'zbekistonga Pokistonning Karachi, Qosim va Gvadar portlari orqali Hind okeaniga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkonini beradi. Yangi marshrut Janubiy Osiyoga yuk yetkazib berish vaqtini ikki barobar qisqartiradi va transport xarajatlarni 30 – 40 foizga kamaytiradi. Bu yo'l orqali Hindiston, Fors ko'rfazi va Afrika bozorlariga chiqish mumkin. Bu yo'nalish O'zbekiston tashqi savdosini uchun juda istiqbollidir. Hozirning o'zida O'zbekiston Markaziy Osiyo va Pokiston o'rtasidagi yuk tashish hajmining 64 foizini ta'minlab, bu yo'nalishda mutlaq yetakchilik qilmoqda.

Transkaspiy xalqaro transport marshrutini O'zbekistonga an'anaviy dengiz yo'llariga bog'liq bo'lmagan holda Kavkaz, Turkiya va Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqish imkonini beradi. Bu yo'nalish o'zbek to'qimachilik va agrar mahsulotlari eksportini rag'batlantiradi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, "O'rta yo'lak" orqali yuk tashish hajmi 4 mln. tonnadan oshdi. Jahon banki prognozlariga ko'ra, barcha infratuzilma loyihalari amalga

oshirilsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 11 mln. tonnadan oshishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan uchta yo'nalishning (Sharq, Janub va G'arb) birlashishi O'zbekiston uchun noyob geoiqtisodiy ustunlikni taqdim etadi. Mamlakat bir vaqtning o'zida Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Kavkaz, Turkiya, Rossiya va Yevropaga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Va mamlakat Yevroosiyoning "Sharq – G'arb" va "Shimol – Janub" transport yo'laklari kesishadigan sanoqli va eng asosiy strategik loyihaviy uzellaridan biriga aylanadi. Mahalliy va xalqaro yo'laklarning bunday samarali uyg'unligi dunyoning eng yirik geosiyosiy o'yinchilari va investorlarining O'zbekiston transport loyihalariga yuqori qiziqishini to'liq asoslab beradi.

Xitoy uchun O'zbekiston "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining ajralmas va eng muhim qismidir. Respublika Xitoy

Yevropa qismi bilan tashqi savdosida eng asosiy kanal bo'lib qolmoqda. Ikki davlatni yirik sanoat loyihalari, temir yo'l infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish va tinimsiz o'sib borayotgan savdo aylanmasi bog'lab turadi.

Ayni hamkorlik O'zbekistonga Yevroosiyodagi eng yirik temir yo'l tarmog'i va Rossiya portlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu oddiy tranzitdan chiqib, tashuvlarni raqamlashtirish, "Shimol – Janub" xalqaro transport yo'lagini rivojlantirish, tarif siyosatini muvofiqlashtirish va yagona Yevroosiy transport makonini yaratishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning geostrategik mavqei unga Xitoy, Turkiya, YI va Rossiya kabi yirik xalqaro kuchlar bilan teng huquqli va manfaatli transport diplomatiyasini olib borish imkonini beradi. Har bir global o'yinchi O'zbekiston orqali o'z strategik maqsadlariga erishishga

“Jahon banki va Yevroosiy taraqquiyot banki baholashicha, yirik logistika loyihalarining hayotga tatbiq etilishi iqtisodiyotga milliardlab dollar investitsiyalar olib kiradi, o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'shimcha ravishda tezlashtiradi. Yangi yo'laklarni qurish va mavjudlarini modernizatsiyalash mamlakat hududlarini mutanosib rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa ichki siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.”

tovarlarini Yaqin Sharq, Kavkaz va Yevropa bozorlariga olib chiquvchi qo'shimcha, xavfsiz va qisqa quruqlik yo'llarini kafolatlaydi.

Turkiyaning Markaziy Osiyo orqali o'tadigan transport yo'llarini rivojlantirish strategiyasi uning Osiyo va Yevropa o'rtasidagi asosiy logistik ko'priikka aylanish maqsadiga to'liq mos keladi. Rasmiy Anqara O'zbekistonni "O'rta yo'lak" uchun asosiy yuk yetkazib beruvchi sifatida ko'radi va Turkmaniston, Eron hamda Kavkaz orqali temir yo'li aloqalarini rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Yevropa Ittifoqi Osiyo bilan savdo aloqalarida Rossiyani aylanib o'tuvchi tranzit yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishdan manfaatdor. Shu sababli Bryussel "O'rta yo'lak"ni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamogda va o'zining "Global Gateway" strategiyasi doirasida Markaziy Osiyo infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritmoqda. Yevropa kompaniyalari uchun O'zbekiston yangi transport yo'llari va tez o'sayotgan mintaqaviy bozorga chiqishda muhim sherikdir. Muqobil yo'llar rivojlanayotganiga qaramay, Rossiya yo'nalishi O'zbekistonning qit'aning

intiladi, bu esa rasmiy Toshkentga tashqi iqtisodiy yo'nalishlarni diversifikatsiya va milliy manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha ustunlik beradi.

Umuman, tranzit salohiyatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar mamlakatimizning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasining eng muhim unsurlaridan biri. Bugungi kunda transport sohasi O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 8 foizini shakllantirmoqda va 1 millionga yaqin aholini ish bilan ta'minlamoqda.

Jahon banki va Yevroosiy taraqquiyot banki baholashicha, yirik logistika loyihalarining hayotga tatbiq etilishi iqtisodiyotga milliardlab dollar investitsiyalar olib kiradi, o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy

Umuman, yo'llar, temir yo'l yo'nalishlari va logistika markazlarining qurilishi Markaziy Osiyoning Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'priksifatidagi rolini yanada kuchaytiradi. Qo'shimcha o'sish omillari biznes muhitini yaxshilash, raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan ichki islohotlarni ham o'z ichiga oladi. Mintaqaning yana bir afzalligi uning yosh aholisi bo'lib, bu ichki talabni, mehnat bozorini va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini oshiradi.

Rustambek TOJIYEV,
Farg'ona davlat texnika universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor.

QUYOSH TAFTI – DAROMAD MANBAI

Keyingi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, o'tgan yili jami ishlab chiqarilgan 86,7 mlrd. kVt/soat elektr energiyasining 10,5 mlrd. kVt/soati quyosh va shamol stansiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

“Yashil” energetika



Albatta, kelgusida bu raqam yanada oshishi tayin. Chunki nufus o'syapti, yangi shaharlar sanoat korxonalari paydo bo'lmoqda. Davlat tomonidan muqobil energiya manbalari uchun subsidiyalar berilayotgani ham aholini quyosh panellari o'rnatish orqali daromad topishga undamoqda.

Respublikamiz bo'yicha joriy yilning birinchi choragida 45,2 ming nafar jismoniy shaxs "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida davlat g'aznasidan 73 mlrd. 982 mln. so'm subsidiya oldi, – deydi Soliq qo'mitasining boshqarma boshlig'i Bahodir Abibullayev. – Shuning 45,5 mlrd. so'mi mart oyiga to'g'ri keldi (44,7 ming nafar fuqaroga to'langan). Agar bu raqamni o'tgan yilgi natija bilan solishtirsak, vaziyat yanada oydinlashadi. 2025-yilning I choragida 12 746 nafar fuqaro quyosh panellari o'rnatish orqali 8 mlrd. 147 mln. so'm subsidiya olgan. Ko'rib turganingizdek, bor-yo'g'i bir yil ichida subsidiya oluvchilar soni qariyb 3,5 barobar, to'langan mablag' esa 9 barobar oshgan. Mana, sizga inson aqlu zakovati tufayli osmondagi quyosh taftining daromad manbaiga aylanayotganiga yaqqol misol.

Ilgari barcha asbob-uskunalar Xitoydan keltirilgan bo'lsa, endilikda quyosh panellari, muqobil energiya yaratish uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni mahalliy ishlab chiqarishga asosdill kirishilgan. Bu, o'z navbatida, iste'molchilar uchun tannarxning arzon va jozibador bo'lishini ta'minlayapti. Bugun yashab turgan uyniing tomiga yo ishxonasiga quyosh panellari o'rnatgan kishilar elektr o'chib qolmasaydi, degan xavotirdan butkul qutulgan va aksincha, o'z ehtiyojidan ortiqcha energiyani davlatga sotaypti.

Kam ta'minlangan kishiga rangli televizor yo boshqa texnikalar sovg'a qilgandan ko'ra, quyosh panelini o'rnatib bersagu u shundan naf ko'radigan bo'lsa, qanday yaxshi, – deydi xalq deputatlari Ishitxon tumani Kengashi deputati Faxriddin Abdurazzoqov. – Bu tashabbusni yodimgizda bo'lsa, Prezidentimiz ham ta'kidlagan edi va bu xayrli ish ko'p joylarda ro'yobga chiqib, odamlarga bir olam quvonch keltiryapti. Ana shu savobli ishni yanada ko'paytirish haqida tuman Kengashi sessiyasida aytgandim, barchaga ma'qul keldi. Agar shu tariqa muqobil energiya manbai yurtimizdagi har bir xonadonda paydo bo'lsa bormi, eh-he, shu orqali nechog'li katta miqdordagi tabiiy gaz va ko'mir iqtisod qilinmaydi, deysiz. Yaxshisi, siz ham shu ishga bosh qo'shing, "yashil" energiya yaratishdek tashabbusdan chetda turmang.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

TAFAKKURGA TAYANGAN TARAQQIYOT

Bugungi kunda Jizzax viloyatida sanoatda ishlab chiqarish hajmi jadal sur'atlarda o'smoqda, xorijiy investorlar soni ortib, logistika tizimi rivojlanmoqda. 2026-yilning birinchi choragiga oid natijalar hududda raqamli iqtisodiyot aholi farovonligini ta'minlovchi muhim omilga aylanayotganini ko'rsatmoqda.

Raqamlashtirish

Ta'lim dasturlarining biznes talablari bilan bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi yirik kompaniyalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlamoqda. Jizzaxlik yoshlar o'z bilim va tafakkuriga tayanib, yaratayotgan dasturiy mahsulotlari bilan nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham munosib o'rin egallayotir. O'tgan yili viloyatda IT xizmatlari eksporti 9,5 mln. AQSh dollaridan oshdi. E'tiborlisi, mazkur mahsulotlarning asosiy xaridorlari AQSh, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar bo'lmoqda.

Dasturiy mahsulotlar bozori chaqqon

Joriy yilning I choragida eksport hajmi yana 126 foizga o'sib, deyarli 3 mln. dollarga yaqinlashdi, – deydi Raqamli texnologiyalar vazirligi Jizzax viloyati hududiy shu'basini rahbari Mahmud G'iyosov. – Bu ko'rsatkichlar Jizzaxda yaratilgan dasturiy mahsulotlar jahon bozorida raqobatdosh bo'layotganini anglatadi. Ilgari dasturchi bo'lish uchun poytaxtga yoki kamida viloyat markaziga borib o'qish talab etilardi. Yangi muhitga moslashishning o'ziga oylar ketardi. Endi esa imkoniyatning o'zi qishloqlarga kirib bormoqda. Do'stlik tumanida mahalliy byudjet

mablag'lari hisobidan barpo etilgan 160 o'rinli IT-shaharcha buning yorqin namunasidir. Bu yerda yoshlarga dasturlash, kompyuter savodxonligi va xorijiy tillar o'rgatilmoqda. Zomin va Sharof Rashidov tumanlarida ham shunday loyihalarining yakuniy bosqichi amalga oshirilyapti. Joriy yil oxiriga qadar Zafarobod, Yangiobod va Forish tumanlarida ham yangi IT-shaharchalar foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Bu esa yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Viloyatdagi IT-shaharchalar va chekka hududlarda kompyuter savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar kelgusida Jizzaxni mamlakatning muhim raqamli xabaridan biriga aylantirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Asosiy maqsad – har bir xonadonga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, yoshlarga uyidan chiqmagan holda jahon bozorida faoliyat yuritish imkoniyatini yaratishdir.

Raqamli iqtisodiyotning asosi, albatta, bilimli kadrlar va inson kapitali hisoblanadi. Bu borada ham viloyatda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 26 mingdan ziyod yoshlar ro'yxatdan o'tib, ularning qariyb 24 ming nafari kurslarni muvaffaqiyatli tamomladi. 202 nafari yosh xalqaro IT kurslarida tahsil olib, sertifikatlariga ega bo'ldi.

Istiqbolli g'oyalarni izlab...

"Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi doirasida 60 mingga yaqin talabgorlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 50 mingdan ziyodi o'qishni muvaffaqiyatli yakunlagan. "Raqamlashtirish orqali farovonlik sari" dasturi asosida ijtimoiy reestrda turgan 17 dan 30 yoshgacha bo'lgan 1148 nafar yigit-qiz kasbiy bilimlarini oshirib,

o'z faoliyatini boshladi. Ulardan 140 nafari dastlabki daromadlarini ham qo'lga kiritdi.

– Avvaliga "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasida shunchaki qiziqish uchun qatnashgandim, – deydi Zafarobod tumanidagi Yorqin mahallasida yashovchi Bobomurod Tilovboyev. – Topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarib, sertifikatlar oldim. Qiziqishim ortib, besh oy ichida murakkab dasturlarni ham o'rgandim. Hozir internet orqali o'z tadbirkorligimni yo'lga qo'ygandim. Uydan chiqmasdan daromad topayman va hatto o'zim kabi yana 3-4 nafar yoshni ham bu ishga jalb qiladi.

Hududlardagi yoshlar orasidan istiqbolli g'oyalarni izlab topish, ularni startaplarga aylantirish va qo'llab-quvvatlash borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. So'nggi uch yilda 60 ta raqamli startap ishlab chiqilib, ularga 4,3

mlrd. so'm investitsiya jalb qilindi. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Joriy yil uchun belgilangan vazifalar yanada ulkan. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar hajmini 130 mlrd. so'mdan oshirish, IT xizmatlari eksportini 15 mln. dollarga yetkazish hamda "IT Park" rezidentlari sonini 100 tadan ziyodga olib chiqish rejalashtirilgan.

– Hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilayotgan bir paytda yuqori

Umuman, Jizzax viloyatida raqamli texnologiyalar sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar hududning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu jarayonda inson kapitali, bilim va innovatsiyalarga tayanilgan barqaror rivojlanishning mustahkam poydevori yaratilmoqda.

Tolibjon ERGASHEV
("Xalq so'zi").

Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib o'tgan "Umra+Ziyorat turizmi" xalqaro ko'rgazmasida O'zbekistonning milliy ekspozitsiyasi namoyish etildi.



TOSHKENTNING ZAMONAVIY GASTRONOMIK MASKANI

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi "O'zbekiston ovozi" ko'chasida tashkil etilgan 7/24 tartibida ishlovchi zamonaviy gastronomik va turizm go'shasi sayyohlik xizmatlari ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zero, mazkur loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad – aholi va sayyohlar uchun kunu tun xizmat ko'rsatadigan, xavfsiz, zamonaviy va jozibador infratuzilma yaratishdir.

Turizm

Rosti gap, ilgari Toshkentga keladigan mehmon va sayyohlarning asosiy qismini yoshi kattalar tashkil etardi. Ko'kcha, Zarqaynar ko'chalari, Chorsu bozori atrofi va Hastimom majmuasi kabi mashhur turizm maskanlarida ko'proq kekka insonlarni uchratardik. Bugun esa zamonaviy va tarixiy qiyofada yangilangan bu gastronomik va sayyohlik ko'chasi yoshlar bilan gavjum. Bu holat shahar hayotiga jo'shqinlik bag'ishlamog'da.

Kechqurun – quyosh botishi bilan ko'chalar sayyoh va mehmonlar bilan to'layotgani quvonarli holat. Ayniqsa, yoshlar ko'p bo'lgani uchun bu yerda hayot "qaynamog'da". Yaqin kelajakda bu kabi ko'chalar xalqaro darajadagi karving san'ati festivallari, gastronomik turizm tadbirlari va turi yoshlar forumlarini o'tkazadigan mashhur maskanga aylanishi ham ehtimoldan xoli emas.

Ushbu gastronomik va turizm ko'chasi tumandagi Shahrisabz, Oqibat va Nur mahallalari hududida joylashgan bo'lib, ko'chaning umumiy uzunligi 2,1 kilometrni tashkil etadi. Loyiha qiymati esa 40 mlrd. so'mga teng.

Ko'chaning o'ziga xos jihati shundaki,

u faqat savdo yoki ovqatlanish nuqtalari joylashgan hudud emas, balki gastronomik turizmni rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks makon sifatida shakllantirilmoqda. Bu yerda milliy va xorij oshxonasining eng sara taomlari tayyorlanadigan zamonaviy kafe va restoranlar, oilaviy dam olish maskanlari, yoshlar uchun ko'ngilochar hududlar hamda sayyohlarga qulay sharoit yaratilmoqda.

– "O'zbekiston ovozi" ko'chasida o'tgan asrlarga xos milliy arxitektura uslubi, modern ko'rinish va zamonaviy raqamlashtirilgan shaharsozlik yechimlari birlashtirilgan bo'lib, o'ziga xos qiyofaga ega, – deydi Toshkent shahar Turizm boshqarmasi bosh mutaxassisi Bobomurod Fayziyev. – Qurilish ishlari 2024-yil avgust oyida boshlanib, loyiha 2025-yilda ishga tushirildi. Qisqa vaqt ichida hududning mutlaqo yangi ko'rinishga keltirilishi tizimli va puxta yondashuv natijasidir.

Zamonaviy turizm maskanining iqtisodiy samarasini raqamlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Hozirda mazkur hududda jami 165 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Shulardan 30 tasi yangi tashkil etilgan bo'lsa, 56 ta tadbirkorlik subyekti o'z



faoliyatini kengaytirgan. Eng muhimi, 89 ta obyekt kunu tun ishlashga o'tkazildi. Mazkur tashabbusga qiziqish yuqori ekanini yana 48 ta tadbirkorlik subyekti 24 soatlik faoliyatga o'tish istagini bildirganidan ham anglash mumkin.

– O'zbekistonga kelgan kunimizdanoq o'zimizni begona his qilmadik. Shuning uchun ham Toshkentdagi "O'zbekiston ovozi" ko'chasida faoliyatimizni boshladik, – deydi turkiyalik ishbilarmon, "The Foodie" restoranini rahbari Xalil Arslan. – To'rt oydan beri mahalliy aholiga ham, xorijlik sayyohlarga ham sidiqidiidan xizmat ko'rsataymiz. Bu yemakxonani ishga

tushirish uchun o'rta hisobda 30 – 40 ming AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritdik. Bu yerda tadbirkorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, xavfsiz va qulay biznes muhiti biz kabi xorijlik investorlarda katta qiziqish uyg'otaydi.

Xorijlik ishbilarmonlar, mahalliy tadbirkorlar bilan suhbatlashib, turizm sohasidagi ushbu o'zgarishlar aholi bandligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotganiga amin bo'lasiz. Gap shundaki, mazkur loyiha sharofati bilan hududda yaratilgan doimiy ish o'rinlari soni 2 200 tadan oshdi. Bu esa yuzlab oilalar uchun daromad manbai, deganidir.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish hajmining 23,2 mlrd. so'mga oshishi kutilmoqda. Byudjetga esa qo'shimcha 5,2 mlrd. so'm tushum kelishi prognoz qilingan. Raqamlar loyihaning nafaqat

shahar qiyofasini o'zgartirishda, balki iqtisodiy faollikni kuchaytirishda ham muhim omilga aylanayotganini ko'rsatadi.

– Ko'chamiz nafaqat mahallamiz aholisi, balki shahrimiz mehmonlari uchun ham sevimli maskanga aylanib bormoqda, – deydi hokimning "Oqibat" MFY bo'yicha yordamchisi Anvar Boboyev. – Bu yerda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar biznes faoliyatini kengaytirish barobarida, hududiy iqtisodiyot rivojiga ham munosib hissa qo'shmoqda. E'tiborli jihati, turizm yo'nalishida ta'lim olgan o'ndan ziyod yoshlar mazkur ko'chadagi gastronomik markazlarda ish boshladi. Ayniqsa,

mahallamizda yashovchi, qaramog'ida ikki nafar farzandi bo'lgan Sevara Quvvatbekovaga katta imkoniyat bo'ldi. U yangi tashkil etilgan "Abdulazizxon Usmonov" MCHJda oshpaz yordamchisi sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Oyiga o'rtacha 7-8 mln. so'm daromad topmoqda.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo megapolislarida "tungi iqtisodiyot"ga muhim daromad manbai sifatida qaraladi. Toshkentda ham ana shunday yondashuv bosqichma-bosqich shakllanmoqda. "O'zbekiston ovozi" ko'chasi bu borada ilk yirik namunaviy loyihalardan biri bo'lib, u kelgusida boshqa hududlarda ham zamonaviy turistik va gastronomik ko'chalarni tashkil etish uchun tajriba vazifasini o'taydi.

Tadbirkorlik ishlari sabab Toshkentga tez-tez kelib turaman, – deydi namanganlik ishbilarmon Gulnora Hakimova. – Har safar bu yerda yangilanishlar, yangi qurilishlar, odamlarga yaratilayotgan sharoitlarni ko'rib quvonaman. Ayniqsa, "O'zbekiston ovozi" ko'chasi, rostini aytсам, meni hayratga soldi. Bu joy, haqiqatan ham, Yevropa shaharlaridan qolishmaydigan darajada chiroyli va zamonaviy maskanga aylanibdi. Ko'chaning boshlanish nuqtasidan Ekobog' oldigacha bo'lgan hududda sayr qilgan har qanday kishining charchoqlari chiqib ketadi.

Kechayu kunduz hayot qaynaydigan "O'zbekiston ovozi" ko'chasi bugun nafaqat zamonaviy turizm xizmatlari mujassam bo'lgan yangi manzil, balki azim Toshkent shahrining zamonaviy taraqqiyot ramziga aylanib bormoqda.

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

Moziydan sado

QADIMIY MADANIYAT KASHFIYOTLARI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida xalqaro ilmiy hamkorlik izchil rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston va Rossiya oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlari bilan yo'lga qo'yilgan aloqalar arxeologiya sohasida muhim natijalar bermoqda.



Xususan, institut bazasida 2023-2024-yillarda tashkil etilgan xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar doirasida Nukus tumaniidagi "Kerder" OFY hududida joylashgan o'rta asrlarga oid "Hayvonqal'a" tarixiy yodgorligida keng ko'lami qazish ishlari amalga oshirilgan edi. Bu ilmiy izlanishlar joriy yil ham izchil davom ettirilmoqda.

– Ekspeditsiyaga institut tarix fakulteti talabalari ham jalb qilingan, – deydi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti Baxit Turg'atov. – Talabalar arxeologik qazishmalarda bevosita ishtirok etib, nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlamoqda.

Xalqaro ekspeditsiya nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki yosh arxeologlar maktabini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talaba-yoshlar obyekt boshida qurilgan chodirlarda yashab, haqiqiy arxeologik ekspeditsiya muhitida qazishma ishlarda qatnashayotir. E'tiborlisi, talabalarining xorijlik olimlar bilan birgalikda ishlashi ularning ilmiy salohiyati va amaliy tajribasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga qadar olib borilgan qazish ishlari davomida 100 dan ortiq mis tangalar, 30 ga yaqin shisha idish parchalari, loydan yasalgan bolalar o'yinchog'i, tandir, temirdan ishlangan o'roq bo'lari, suyakdan yasalgan qamchi tutqichining bir qismi hamda misdan ishlangan belbog' tutqichi kabi nuyob topilmalar aniqlandi.

Mutaxassislar fikricha, ushbu topilmalar hududda hunarmandchilik, savdo-sotiq va turmush madaniyati yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular o'sha davr aholisining ijtimoiy hayoti va xo'jalik faoliyati haqida ham muhim manbalarni taqdim etadi.

Ma'lumot o'rinda aytilish joizki, "Hayvonqal'a" (Kerder qal'a) Qoraqalpog'istondagi o'rta asrlar davrining yirik shahar madaniyatiga oid yodgorliklardan biri hisoblanadi. Uning bugungi kungacha saqlanib qolgan umumiy maydoni 19 gektarni tashkil etadi.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

GULMOHI BALIG'I YETISHTIRISHDA NORIN TAJRIBASI

Baliq – inson salomatligi uchun eng foydali ne'matlardan biri. Chunki u shifobaxsh taom sifatida ham qadrlidir. Tabiiy muhitda parvarishlangan baliq go'shti juda yengil hazm bo'lishi, vitamin hamda minerallarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Omilkorlik

Aholining baliq iste'moli yildan-yilga oshib borayotgan shu kunlarda sohada intensiv texnologiyalardan samarali foydalanish talab etilmoqda. Shu ma'noda, Namangan viloyatida Norin tajribasi nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy ahamiyati bilan mamlakatimizda e'tiborga sazovor bo'lyapti.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Namangan viloyati bosh boshqarmasi hamda tijorat banklarining sa'y-harakatlari bilan Norin tumanidagi xonadonlarda yo'lga qo'yilgan intensiv usulda baliq yetishtirish tajribasi qisqa vaqt ichida kutilganidan ortiq natija bera boshladi.

– 2025-yilning avvalidan intensiv usulda gulmohi (forel) baliq'i boqish loyihalarini amalga oshirishga kirishgan edik. Sentyabr oyigacha tumanimizda umumiy qiymati 40 mlrd. so'mlik 200 ga yaqin hovuzlarda baliq yetishtirish yo'lga qo'yildi, – deydi Norin tumani hokimining birinchi o'rinbosari G'ayratjon Pirimqulov. – Mazkur loyihalar ijrosi yo'lida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratildi. E'tiborlisi, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar doirasida meliorativ tik quduqlar atrofiga va aholi xonadonlaridagi hovuzlarda 2 ming tonna gulmohi baliq'i yetishtirilmoqda. Bu ishlar kooperatsiya usulida, yirik klaster "Fishville Norin" korxonasi tomonidan amalga oshirilyapti.

Korxona bugungi kunda nafaqat viloyatda, balki respublikada baliqchilik sohasida amalga oshirilayotgan eng yirik va innovatsion loyihalardan biri sifatida e'tirof etiladi. E'tiborlisi, korxona baliq yetishtirish bilangina cheklanib qolmay, eksport, aholi bandligi, gastronomik turizm va kooperatsiya tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.



Bugungi kunda 3 mln. AQSh dollari

kiyatiga teng sarmoya kiritilib,

2 gektardan ziyod maydonlarda barpo etilgan

76 ta innovatsion havzaning

40 tasi to'liq ishga tushirilgan,

ulara superintensiv texnologiya

asosida gulmohi baliq'i yetishtirilayapti.

– Keyingi bosqichda investitsiyani

15 mln. dollargacha ko'paytirib,

eksport hajmini 10 mln. dollarga

yetkazish loyihalarini ustida izlayapmiz,

– deydi "Fishville Norin" korxonasi

rahbari Azizbek Daminov. – Fosfor,

"omega-3" va "omega-6" kabi yog'

kislotalariga boy gulmohi baliqlarining

kundalik taomnomada bo'lishi insonda

xotira susayishi, yurak-qon tomir

va asab kasalliklarining oldini oladi.

Bugun nafaqat yurtimizda, balki

xorijda ham baliqning ushbu kamuyob

turiga ehtiyoj katta. Huddimizning

imkoniyatlari esa baliq yetishtirish

borasidagi ishlarimizga keng yo'l

ochmoqda. Mazkur loyihamizga aholi

tomonidan katta qiziqish bildirilyapti.

Ko'plab oilalarga baliq parvarishlash

texnologiyasini o'rgatdik.

Darhaqiqat, "Fishville Norin"ning

eng muhim jihatlaridan biri aholi bilan

kooperatsiya asosida ishlayotganidir. Xo'jaqo'rg'oncha mahallasidagi 25 ta xonadon korxona bilan hamkorlik qilib, har biri yiliga 150 mln. so'mgacha daromad olmoqda. Kelgusida Norin va Uchqo'rg'on tumanlaridagi yana 100 ta oilani ushbu tizimga jalb qilish rejalashtirilgan. Bu esa qishloq aholisi daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda 3 mln. AQSh dollari qiymatiga teng sarmoya kiritilib, 2 gektardan ziyod maydonlarda barpo etilgan 76 ta innovatsion havzaning 40 tasi to'liq ishga tushirilgan, ulara superintensiv texnologiya asosida gulmohi baliq'i yetishtirilayapti.

Korxona doirasida 300 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan. Shu bilan birga, baliqchilik sohasi atrofiga qo'shimcha xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham shakllanmoqda. Xususan, korxona hududida zamonaviy restoran va gastronomik turizm markazi tashkil etilgan bo'lib, u bir vaqtning o'zida 100 nafar mehmonga xizmat ko'rsata oladi.

Loyihaning yana bir iqtisodiy afzalligi resurs tejamlorligi va ekologik samaradorligidir. Meliorativ quduqlar atrofiga tashkil etilgan intensiv havzalarda foydalanilgan suv keyinchalik qishloq xo'jaligida ishlatilmoqda. Minerallarga boyigan ushbu suv hosildorlikni oshirishga xizmat qilyapti. Va kelgusida Norin tumanida "Fishville Norin" tajribasi asosida davlat-xususiy sheriklik yo'li bilan 84 ta tik quduq atrofiga super intensiv baliqchilik loyihalarini ishga tushirish hisobiga yiliga 8500 tonna baliq yetishtirish imkoniyatlari ustida ish olib borilyapti.

Ayni paytda klaster tizimida aholi xonadonlarida 60 tonna, davlat-xususiy sheriklik asosida tik quduqlar yonida tashkil qilingan hovuzlarda 240 tonna

va "Fishville Norin" korxonasida 1 ming 700 tonna atrofida gulmohi baliq'i yetishtirilmoqda.

Loyiha doirasida tuman mahallalaridagi har bir xonadonda o'rtacha 1,6-1,8 tonna atrofida baliq yetishtiriladi. Dastlab donasi 250 – 300 gramm bo'lgan jami 1000 ta baliq chavog'i olti oyda o'rtacha 50 – 60 mln. so'mdan daromad keltira boshlaydi.

Bunga tumanning Changitma mahallasida istiqomat qiluvchi Saidkrom Buzrukov o'tgan yilning iyun oyida 500 ta gulmohi baliq'ini tashlab, oktabr oyiga kelib 30 mln. sof foyda olganini yorqin misol qilib keltirish mumkin.

– Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayman, asosiy ishdan bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, qo'shimcha daromadga ega bo'lish maqsadida baliq yetishtirishga kirishdim. Xalq bankining imtiyozli krediti ko'magida 80 tonnalik sig'imga ega hovuzda ikki tonna baliq boqishni boshladik, – deydi Uchtepda mahallasida istiqomat qiluvchi Ahror To'lipov. – Baliq parvarishiga kerak bo'ladigan ikkita motor va kislorod ishlatish tufayli energiyani tejash uchun 5 kilovattlik quyosh panelini o'rnatdik.

Klasterdan baliq yetishtirish borasida olgan ko'nikmalarimiz samarasini berdi. Har oyda o'rtacha 9-10 mln. so'm oilamiz byudjetini to'ldirmoqda.

Tadbirkor Azizbek Daminovning ta'kidlashicha, davlatimiz rahbarining tashriifi chog'ida "Fishville Norin" korxonasiga viloyatda intensiv usulda gulmohi baliq'ini yetishtirish bo'yicha hovuzlar sonini 1000 taga yetkazish yuzasidan topshiriq berilgan. Mazkur vaqtinchi ijrosiga kirishilib, loyiha tashabbuskorlari ro'yxati shakllantirildi. Hozirga kelib, 200 ga yaqin yangi hovuzlar qurish ishlari olib borilmoqda, shundan 50 tasini tez orada ishga tushirish kutilmoqda. Eng muhimi, mazkur loyiha viloyatda agrobiznesning yangi drayverlaridan biri sifatida bir vaqtning o'zida eksportbog' mahsulot ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va turizmni rivojlantirishga xizmat qiladigan iqtisodiy modelga aylanmoqda.

Akramjon SATTOROV
("Xalq so'zi").

YANGILIKLAR

xabarlar

Dorivor o'simliklar eksporti kengaymoqda

Qamashi tumanida faoliyat yuritayotgan "BBU – Azamat" mas'uliyati cheklangan jamiyati dorivor g'iyohlarni yetishtirish va eksport qilish sohasida mamlakatimizdagi yirik tadbirkorlik subyektlaridan biri hisoblanadi.



Ushbu korxonada yiliga 3 mln. dollarlik dorivor g'iyohlar yetishtirilib, asosan, Yevropa davlatlariga yetkazib berilayotgan bo'lsa, endilikda xomashyoni shu yerning o'zida qayta ishlab, tayyor mahsulot holid eksportga chiqarish bo'yicha yangi loyiha amalga oshirilmoqda.

– Ayni paytda loyiha uchun 7 mlrd. 846 mln. so'm qiymatidagi zarur bino va inshootlar barpo etilyotir, – deydi mas'ul xodim Ilhom Mirzaev. – Qurilish ishlari yakunlanganidan so'ng Germaniyadan mahsulotni qayta ishlash imkonini beradigan, har biri 250 ming dollarlik ikkita zamonaviy texnologiya olib kelinadi.

E'tiborli tomoni, tadbirkorlik subyekti faoliyatining kengayishi natijasida korxonada yana kamida 30 ta ishchi kuchiga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

Ko'hna go'sha yangi qiyofada

Hazrat Bahouddin Naqshband nazari tushgan Kogon tumanidagi Chorchinor qishlog'ida 1,5 kilometr uzunlikdagi yo'lga asfalt yotqizildi. Shu va qo'shni Rabotipoyon qishlog'i ko'chalariga muqobil energiya manbalari asosida ishlovchi zamonaviy yoritish moslamalari o'rnatildi. Bular davlatimiz rahbarining "Islom taraqqiyot banki" va OPEK xalqaro taraqqiyot jam'armasi ishtirokida "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida bajarilgan ishlarning bir qismi, xolos.



Qolaversa, ushbu loyiha doirasida Bahouddin Naqshband nomidagi mahallada uzunligi 10 kilometr dan ziyod bo'lgan ichki yo'llarga asfalt qoplamasi yotqizildi, yon-atrof obodonlashtirildi. Hududdagi 1-umumta'lim maktabida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilyapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotida esa kapital rekonstruksiya ishlari poyoniga yetmoqda.

Darvoqe, bu yerda yosh ota-onalarni quvontiradigan yana bir yangilik bor. Tashkilot uchun qo'shimcha tarzda 120 o'rinni zamonaviy bino ham qad rostladi.

– Buniyodkorlik ishlari bu ko'hna go'shaga yangicha qiyofa baxsh etmoqda, – deydi xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi deputati Zulfiya To'eva.

– Muhimi, hudud aholisining farovon turmush kechirishi, orzu-niyatlariga yetishi uchun qulayliklarni yaratilyapti. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu aslida.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

16-iyulda boshlangan va 22-iyulgacha davom etadigan Hindistondagi nufuzli "Quantbox Chennai Grand Masters – 2026" xalqaro shaxmat turnirida O'zbekiston sharafini grossmeyster Nodirbek Abdusattorov himoya qilmoqda.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmurotov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Maslahatchi S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.03 Topshirildi – 23.45

1 2 3 4 5 6